SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 8 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**


*Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ........ 11-17

*Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ........ 18-24

*Раупов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ........ 25-32

*Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ........ 33-40

*Begamova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA’LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 41-48

*Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ........ 49-54

*Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI ........ 55-59

*Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ........ 60-64


**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**


*Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES ........ 65-70

*Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ........ 71-75

*Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 76-84

*To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li*
KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR ........ 85-92

*Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich*
MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 93-98

*Turobov Sherzod Alisherovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI ........ 99-105

*Шамсиев Нодир Муратович*
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ ........ 106-110

*Zaripova Moxira Zarip qizi*
AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 111-114

*Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич*
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ........ 115-121

*Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi*
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI ........ 122-127

*Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи*
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 128-137

*Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович*
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ........ 138-150

*Мамадиёров Олимжон Умарович*
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ........ 151-158

*Раббимов Жахонгир Эшбоевич*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ ........ 159-164

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ ........ 165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ ........ 175-181

*Бекжанов Дилмурад Йўлдашович*
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ........ 182-193

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o‘g‘li*
SHARQ VA G‘ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ........ 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA’NAVIY MA’RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ........ 206-211

*Jo‘rayev Alisher Tulqinboyevich*
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI ........ 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY– GNOSEOLOGIK MAQOMINI O‘RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ........ 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ҒОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ........ 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ........ 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
DINIY MANBALARDA GO‘ZALLIK TO‘G‘RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ........ 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНИНГ МЕЗОНИ ........ 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY ADOLATNI TA’MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ........ 252-257

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Soatova Nodira Isomitdinovna*
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIIY IFODASI ........ 258-265

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA ........ 266-269

*Yusupova Omina Muhammadzoir kizi*
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE ........ 270-276

*Бозорова Хулкар Одинакуловна*
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ........ 277-282

*Matyakubov Oybek Quralbayevich*
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI ........ 283-288

*Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ ........ 289-293

*Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*
O‘ZBEK TILIDA KAUZATIV FE’LLARNING YASALISH USULLARI ........ 294-299

*Xamzayev Otaxon Erkinovich*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ........ 300-305

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ ........ 306-310

*Сафоева Садокат Мусоевна*
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА ........ 311-320

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ........ 321-330

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Zoirova Lola Xamidovna*
TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI” MAVZUSINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH ........................................ 331-336

*Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich*
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) ........................................ 337-343

*Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev Oʻktam Sobir oʻgʻli*
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI OʻYIN TEXNIKASIGA OʻRGATISH ........................................ 344-349

*Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi*
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS ........................................ 350-355

*Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна*
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ .. 356-361

*Islomova Madina Asqarovna*
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI OʻQITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........................................ 362-368

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI OʻRGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........................................ 369-373

*Абдукаюмова Наргиза Раимовна*
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ–ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ ........................................ 374-384

*Norboyev Farxod Chorshanbiyevich*
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR ........................................ 385-390

*Borasheva Aybolgan*
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING ........................................ 391-398

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI ........................................ 399-409

*Boboraximov Sanjar Malikjanovich*
MAKTABDA OʻQUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QOʻYILADIGAN TALABLAR ........................................ 410-414

*Salimova Shahlo Sayfulloyevna*
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI ........................................ 415-421

*Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi*
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS ........ 422-427

*Xamroyev Samijon Salimovich*
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI ........ 428-433

*Kattaeva Feruza Shakirovna*
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD ........ 434-441

*G'ofurov Azizbek Umarjonovich*
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 442-447

*Abduraximova Umida Shuxratovna*
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 448-454

*Obidova Gulmira Kuzibaevna*
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR ........ 455-460

*Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna*
PROFESSINAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH ........ 461-469

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**G'ofurov Azizbek Umarjonovich**
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotasiya.** Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmga oid bilimlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, bugungi kunda turizm faoliyati har bir mamlakat uchun muhim ijtimoiy sohaga aylanganligi, sport turizm sohasining individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o'rganilib rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar yoritib berilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** jismoniy tarbiya, yangi taraqqiyot, sport turizm, innovasion g'oyalar, jismoniy madaniyat, Yevropa mamlakatlarida, barkamol inson, innovasion itisodiyot, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-metodik.

**Gofurov Azizbek Umarzhonovich**
Fergana State University independent researcher

## NEED TO IMPROVE THE TRAINING SYSTEM FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL EDUCATION

**Abstract.** In this article, the socio-pedagogical foundations of developing the knowledge of future physical education teachers about sports tourism, the fact that today tourism has become an important social sphere for every country, the individual-psychological characteristics of the sphere of sports tourism, and the sphere of their motives are thoroughly studied and developed. comments about the opinion are highlighted.

**Key words and phrases:** physical education, new development, sports tourism, innovative ideas, physical culture, in European countries, a well-rounded person, innovative economics, modern pedagogical technologies, scientific and methodical.

**Гафуров Азизбек Умаржонович**
Независимый исследователь Ферганского
государственного университета

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИЕ УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены социально-педагогические основы формирования знаний будущих учителей физической культуры о спортивном туризме, то, что сегодня туризм стал важной социальной сферой для каждой страны, индивидуально-психологические особенности сферы спортивного туризма, а также тщательно изучена и разработана сфера их мотивов, выделены комментарии по поводу мнения.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, новое развитие, спортивный туризм, инновационные идеи, физическая культура, в европейских странах, всесторонне развитая личность, инновационная экономика, современные педагогические технологии, научно-методические.

DOI: https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N63

Mamlakatimizda oʻqituvchi taʼlim va tarbiya jarayonini tashkil qilish bilan birga, uni boshqaradi, davlat ahamiyatiga molik vazifalarni amalga oshiradi, davlat maqsadlari asosida yangi avlodni jamiyat uchun shakllantiradi.[1] Shunga koʻra, oʻqituvchi oʻz faoliyatini yangi uslubda tashkil qilishga tayyor boʻlsagina, hali kashf qilinmagan kashfiyotlarga boy boʻlgan kasbiy pedagogik jarayonni tashkil qiladi hamda har tomonlama barkamol shaxs shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratadi. Demak, taʼlim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda ilk qadamlaridan biri bu — oʻqituvchilarni kasbiy pedagogik jarayonga tayyorligini taʼminlashdir.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining ish uslubini takomillashtirishda optimal-pedagogik usullar izlanmoqda. Ammo bu urinishlar quyidagi kamchiliklar tufayli natijasiz boʻlib qolmoqda:

– boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi “Jismoniy tarbiya” darslari zamonaviy modifikasiyalashtirilmayapti;

– pedagogik jarayon talabalarning taʼlim ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilmagan;

– jismoniy tarbiya oʻqituvchilari talabalarga zamonaviy bilim berishda jismoniy mashqlarni loyihalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlariga yetarlicha baho berishmayapti;

– talabalar taʼlim ehtiyojlarini shakllantirishga, uni qoniqtirish uchun sharoitlar yaratishga intilish yetarli darajada emas;

– talabalarga jismoniy yoʻnalishdagi didaktik vaziyatli topshiriqlaridan foydalanish tartibli va muntazam ravishda olib borilmayapti; bu mazmundagi auditoriyadan tashqari jismoniy-madaniy-oqartuv ishlarining olib borilishi talab darajasida emas;

– talabalarga kelgusi mutaxassisliklari boʻyicha jismoniy madaniyat sohasiga oid loyihalash texnologiyasi koʻpincha, tasodifiy mashqlardan foydalanish evaziga amalga oshirilmoqda (ularning mazmuni shaklidan tashqarida qaraladi, oʻzaro bogʻliq holda ifodalanmaydi, shakli esa — mazmunidan alohida olib borilishi kuzatiladi);

– boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilari — ertangi kun umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchilari mazkur muammoning zamonaviy metodologik hamda nazariy asoslari boʻyicha tavsiyalarga ehtiyoj sezadilar.[2]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Kasbiy faoliyatda oʻqituvchi ilgʻor, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka oʻch boʻlishi lozim. Kasbiy faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiv qismlardan tashkil topadi.[4] Mazkur jarayon ikki yoʻnalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga oʻrgatish. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda tahsil oluvchilarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.[3]

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining kasbiy faoliyati natijasida talabalarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha oʻrganilib

chiqiladi, maktab va auditoriyadan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga moʻljallangan uzluksiz didaktik tizimni taʼminlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sogʻlom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar: suhbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, oʻquvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olinadi, sport toʻgaraklariga jalb qilinadi, tahsil oluvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari oʻstiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muhit atroflicha oʻrganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish har bir mamlakat ta'lim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlar va qonunchilik bazasiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi mamlakatlarning barchasida ham innovatsiyalarning amaliyotga joriy etilish tizimi bir xil emas, masalan, Germaniyadagi oliy oʻquv yurtlarida tahsil oluvchi boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini oʻqitish jarayonida innovatsiyalar bevosita Sport markazlari, Sport federatsiyalari buyurtmasi asosida yaratilib, tatbiq etiladi. Ispaniyadagi oliy oʻquv yurtlarida innovatsiyalarni yaratish jarayonida asosan sport mutaxassislari, trenerlar, tadqiqotchilar faoliyat koʻrsatadi va ular yaratilayotgan yangilikka bozor talabini oʻrgangan holda yondashadilar.

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini tayyorlashda innovatsiyalar transferi Ispaniyada oʻziga xos xususiyatga ega. Bunda boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilariga kasbiy faoliyat sirlarini oʻrgatishda maxsus model yaratilgan boʻlib, bu model boshqa mamlakatlardagi modellardan farqlanadi. Oʻqituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringi, sifatning taʼminlanishi va boshqalar inobatga olinadi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini tayyorlashda Ispaniyada oʻquv muassasalarida samaradorlik va sifat eng muhim koʻrsatkichlar sifatida qaraladi.[6] Oʻqituvchilarning innovatsion faoliyati yaxlit ta'lim tizimi yoki uning maʼlum bir aniq bosqichidan kelib chiqib miqdoriy jihatdan ham baholanadi.

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini tayyorlashga yangicha yondashuvlarni shartli ravishda ikkita modelga boʻlish mumkin .

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining oʻz faoliyatiga evristik yondashuv modeli – oliy ta'lim muassasalarining(OTM) jismoniy tarbiya va sport ta'lim yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar uchun qoʻllanadi. Bu model tadqiqotchi olim V. I. Lyaxning "Fizicheskaya kultura" kitobida oʻz aksini topgan.

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining oʻz faoliyatiga kreativ yondashuv modeli – Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Chexiya, Latviya mamlakatlarida qoʻllaniladi. Ushbu mamlakatlarda jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining innovatsion faoliyatida tahsil oluvchilar bilan pedagogik munosabatlarga kirishishda mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta'lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkoni yaratiladi.[6]

Zamonaviy sharoitda jismoniy harakatlar ulushi kamayib borayotganligi bois jismoniy tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta'limning barcha turlari uchun muhim masalalar sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy jismoniy madaniyat ta'limi ma'lum ma'noda jamiyatning yuqori malakali jismoniy tarbiya mutaxassislariga boʻlgan obyektiv ehtiyoji va bitiruvchilarning amaliy-kasbiy tayyorgarliklari oʻrtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bogʻliq muammoli vaziyat bilan ifodalanadi.

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarida oʻz kasbining mohir ustasi boʻlishga, professional faoliyatni yoʻlga qoʻyishga motivatsiyani shakllantirish, ularni ichki motivlarini kasbiy faoliyat samaradorligi uchun yoʻnaltirish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yigʻindisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan maʼnoni bildiradi. Pedagog olimlardan E.Gʻoziyev va R.Asomovalar taʼkidlanganidek, motiv va motivatsiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuygʻu, ustanovka, ideal, imon-eʼtiqod, vijdon, maqsad qoʻya olish va boshqalarni amaliyotda roʻyobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi. Rus olimi A.N.Leontyev fikricha, shaxsni motivatsion muhiti butun hayoti davomida rivojlanib boradigan yaxlit tizim hisoblanadi. U oʻz iyerarxiyasiga ega harakatlanuvchi hisoblanib, ehtiyojlar predmetini hamda individ holatini namoyon etadi. Shunday ekan, inson ong ostida turli xil ehtiyojlar mavjud boʻlib, bu ehtiyojlar inson xatti-harakatlarini, uning tashqi faolligini shakllantiradigan motivatsiyaga aylanishini anglatadi.

Olim X.Xekxauzen motivatsiyaning 6 ta tamoyilini yaratdi. Birinchi tamoyil boʻyicha intensiv motivlashgan xatti-harakatlar ochlik, chanqoqlik, ogʻriqdan qochish singari jismoniy ehtiyojlarning qondirilishiga yoʻnalmagan. Bu yoʻnalishda ish olib borgan olimlarning taʼkidlashicha mazkur ehtiyojlar organizm tomonidan buzilgan gomeostazni tiklashga xizmat qilishmaydi. Biroq tashqi xatti-harakatlarida ularni tuzatish mumkin boʻladi. Birinchi tamoyil boʻyicha motivlashgan xatti-harakatlar maqsadsiz faollik sifatida talqin qilinadi. Oʻyin faoliyatini tadqiq qilgan olim Ye.Klinger oʻyin faoliyatini intensiv motivatsiya asosida maqsadsiz yoʻnaltirilgan harakat deb ataydi.

**Natijalar.** Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida motivatsion faoliyatga yoʻnaltirishda ulardagi faollik va taʼlimiy zoʻriqishni hisobga ham olish lozim. Boshqa bir olimlar P.Fress va J.Piaje fikricha, faoliyatni amalga oshirish uchun, yetarli darajada motivatsiya boʻlishi zarur. Biroq, motivatsiya oʻta yuqori boʻlsa, faollik va zoʻriqish darajasi oshadi va bu oʻz oʻrnida faoliyat, xatti-harakat samaradorligini yomonlashishiga sabab boʻladi. Shu nuqtai nazardan motivatsiyaning oʻta yuqori darajasi faoliyatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan negativ emotsional taʼsirlar: stress, hayajon, zoʻriqishni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan koʻrinadiki, motivatsiyaning oʻta yuqori darajasi har doim ham eng yaxshi jihat hisoblanmaydi.[7]

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, soʻngi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega boʻlgan talabalarning soni ortmoqda. Koʻpgina talabalar standart oʻquv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga toʻliq holatda tayyor emasligi maʼlum boʻlmoqda. Bu koʻrinishdagi talabalar tomonidan mashgʻulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlari uchun fiziologik jihatdan asoslangan standartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan oʻquv mashgʻulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu holat sezilarli sondagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi normativ testlar oʻrtasidagi nomuvofiqlik bilan bogʻliq hisoblanadi. “Koʻpgina talabalarda jismoniy tarbiya mashgʻulotlariga nisbatan zaruriy motivatsiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda koʻpgina holatlarda amaliy mashgʻulotlarda nofaol xolatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida boʻlmaslik, jismoniy yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funksiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qatʼiylik namoyon boʻlmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning jismoniy faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni oʻqitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish oʻziga

xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu holat turli xil darajada jismoniy jihatdan rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikka ega boʻlgan talabalarga harakatlarga oid holatlarni oʻrgatishda yangi uslubiyatni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi.

Yangi Oʻzbekistonda taʼlimning yangi paradigmalarga oʻtishi nafaqat talabalarning oʻzini oʻzi natijaviy rivojlantirishga innovasion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, "Jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuygʻularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda"[8]. Oliy taʼlim muassasalarida talabalar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, pedagoglik kasbiy faoliyatida zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirish, kreativ taʼlim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda oʻta muhim boʻlgan madaniy-kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, taʼlim oluvchilarning eʼtiqodi, ularga taʼsir oʻtkazish; motivatsiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv); suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo oʻzaro taʼsir; pedagogik taktni egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanishida oʻz aksini topadi".[9]

**Muhokama.** Boʻlajak jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari kasbiy muloqot koʻnikmalariga ega boʻlishi, jismonan va maʼnan tarbiyalanganligi, kelajakda oʻquvchilarni sportga jalb qilish qobiliyatiga ega boʻlishi zarur. Sport va estetika, sport va axloq, sport va muloqot, sport va madaniyat, sport madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – boʻlajak jismoniy madaniyat oʻqituvchisi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integrasiyasi bir-birini toʻldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir. Boʻlajak jismoniy madaniyat oʻqituvchisini shakllantirish jarayonida sportdagi goʻzallik, yaʼni uning oʻz koʻrkamligi, gavdalanishi, pedagogik faoliyatida yuksak zavq-shavq uygʻotishi, chuqur taassurotlar qoldirishi va unutilmas hissiyotlarni junbishga keltirishi, ayniqsa, muhim.

Pedagog olimlar Sh.Abdullayeva va E.Xurramovlar fikricha, "jismoniy tarbiya darslarida oʻqituvchi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qatʼiyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Shu nuqtai nazardan, boʻlgʻusi jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining faoliyatini innovasion tashkil qilish, taʼlim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Taʼlim jarayonini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovasion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sogʻlom shaxsgina oʻzining intellektual, maʼnaviy imkoniyatlarini toʻlaqonli namoyon etish imkoniyatiga ega boʻladi".[10] Shunday ekan, boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni innovasion faolyatga yoʻanltirish ustuvor vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Shu ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy oʻrganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining innovasion faoliyatini toʻgʻri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi. Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda oʻrgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizasiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovasion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bogʻliqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yoʻllashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni roʻyobga chiqarishga zamin yaratadi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda, boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlashda ta'limdagi motivatsion yondashuvning oʻrni yuqori hisoblanadi va samaradorligi baland boʻladi. Chunki motivatsion yondashuv talabalarning kasbiy faoliyatiga ehtiyoj va qiziqishlari asosida motivatsion munosabatni shakllantirish orqali ularni yoʻnaltirib boradi. Bu esa, boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy muvafaqiyatga erishish, kasbiy bilim va koʻnikmalarni egallash va ularni takomillashtirib borish istagini kuchaytirib yuboradi. Shu jumladan, boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvichlarini ham motivatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash oʻzining samaradorligini koʻrsatadi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909 сонли Қарори. // https://lex.uz/docs/3171590
2. Холодов Ж. К., Кузнецов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для сту-дентов высших учебных заведений. — М., Академия, 2000. — 480 с.
3. Мишагин В. Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, — 2001. — 190 с.
4. Эргашев Р. Н. Педагогик техниканинг эстетик хусусиятлари. // Узулсиз таълим тизимида инновацион техноло-гиялар: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий материаллари. — Гулистон: 2010. — 43–44-б.
5. Махмудов, Б. А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари / Б. А. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 459-461. — URL: https://moluch.ru/archive/342/76832/ (дата обращения: 13.06.2023)
6. Хуррамов Э. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашда европа мамлакатлари тажрибаларидан фойдаланиш технологиялари// "Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў" Илимий-методикалық журнал. 2022. № ½. –Б. 142-146
7. Лях В. И. Физическая культура.-Москва:Мысль, 2014.-С.-114.
8. Асомова Р.С. Касб танлаш мотивацияси ва унинг динамикаси: Автореф. псих. фан. ном. ... дисс. – Тошкент.: 2002. –Б. 28.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 8 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).